

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/2 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ S/2 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

Специальный выпуск

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES
Special Issue

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Гайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Рахманова Мавлуда Эркин қизи СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ССРГА ХАЛҚЛАРНИ МАЖБУРИЙ КЎЧИРИШ СИЁСАТИ ТАРИХШУНОСЛИГИ.....	9-16
Икромжонов Акмалжон Махмуджонович ФАХРУДДИН ЎЗЖАНДИЙ ЯШАГАН ДАВРДА МОВАРОУННАҲР ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ВАЗИЯТ ВА ИЛМ ФАН РИВОЖИ.....	17-25
Холдоров Зоҳиджон Валижон ўғли ТУРКИСТОН ЛЕГИОНИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ТАРИХИДАН.....	26-34
Хамидова Дилфуза Улуғбек қизи НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЖОДКОРЛАР НИГОҲИДА.....	34-41
Nag'ashboyev Qazbek Bozorboy uli SULTON RAHMONOV – SAYYORANING ENG KUCHLI ODAMI.....	42-49
Махмудов Махмуд Авазович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ ШАРОИТИДА ДЕҲҚОН ХЎЖАЛИКЛАРИНИ ИЖТИМОИЙ ТАБАҚАЛАШУВИ.....	50-58
Mamatov Bektosh Tolibjon o'g'li YALANGTO'SH VANODIR VA ASHTARXONIY HUKMDORLAR.....	59-66

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Muminova Elnoraxon Abdukarimovna “YASHIL” IQTISODIYOTGA O'TISHNING HORIJY TAJRIBALARI.....	66-75
Файзуллоев Мирсаид Шухратович СОЛИҚ НАЗОРАТИ ТИЗИМИДА КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВЛАРИНИ ЎТКАЗИШ АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ.....	76-85
Кахарова Нилуфар Эркинжоновна ОКР МЕТОДОЛОГИЯСИ ХАҚИДА ТУШУНЧА, МАҚСАДИ, АФЗАЛЛИГИ, ЖАРАЁНДАН КУТИЛАДИГАН НАТИЖАЛАР.....	86-91
Насруллоев Ҳаётжон Хабибуллоевич СОЛИҚ МАЪМУРЧИЛИГИГА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ СОЛИҚ БАЗАСИНИ КЕНГАЙТИРИШ ЙЎЛЛАРИ.....	92-99
Rahmonov Mirvoxid Rajabovich HUDUDNING INVESTISION JOZIBADORLIGI OMILLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	100-107
Насруллоев Ҳикматулло Хабибуллоевич ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ ЖАДАЛЛАШТИРИШ УЧУН ЗАМОНАВИЙ РАҚАМЛИ ЕЧИМЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	108-115
Тоштемиров Шохруҳ Тошпўлатович ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ КАПИТАЛ ВА УНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВНИНГ АҲАМИЯТИ.....	116-120

Насимов Равшанжон Азимович МАМЛАКАТИМИЗДА СОЛИҚ ЮКИНИНГ СОЛИҚ ТЎЛОВЧИЛАР ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИРИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	121-130
Nabieva Nilufar Muratovna MARKETING AUDIT AND ITS IMPACT ON IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF THE COMPANY.....	131-139
Отамуродов Нуриддин Нажмиддинович КИЧИК ВА ЎРТА БИЗНЕС ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИ COVID-19 ИНҚИРОЗ ДАВРИДА УЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА СОЛИҚҚА ТОРТИШ МАСАЛАЛАРИ	140-148
Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li TO'G'RIDAN – TO'G'RI HORIJY INVESTITISYALARNI JALB QILISHDA MAMLAKAT XATARLARINI KAMAYTIRISH.....	149-155
Yusupov Farruxbek Farxodovich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ MA'MURCHILIGIDA SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	156-162
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna KICHIK BIZNES KORXONALARIDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISH VA BYUDJETLASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	163-172
Зиёдинова Нилуфар Зариф қизи ИНВЕСТИЦИОН ҚАРОРЛАР ҚАБУЛ ҚИЛИШДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИНГ ЎРНИ	173-179
Насимджанов Юнусжон Зоҳидович МАМЛАКАТИМИЗ ҲУДУДЛАРДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТОВАР ИШЛАБ ЧИҚАРУВЧИ ЮРИДИК ШАХСЛАРНИНГ ЕР СОЛИҒИ МАЪМУРЧИЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	180-187
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
Ҳакимов Акмалжон Мирзағаниевич ЦИВИЛИЗАЦИЯ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ГНОСЕОЛОГИК МОҲИЯТИ	188-192
Холмирзаев Нодиржон Низомжонович УРБАНИЗАЦИЯ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА УНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ	193-198
Voboqulov Abror Abdug'ani o'g'li “OPEN ARTIFICIAL INTELLIGENCE GPT” TIL MODELINING FALSAFIY Tahlili	199-204
Ялгашев Бунёд Махмудович САМАРҚАНД ВОҲАСИ ЭТНИК ГУРУҲЛАРИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ ВА УЛАРНИНГ ЯШАШ ТАРЗИ	205-213
Safarov Maqsudali ABU BAKR AR-ROZIYNING “TIBBI RUHONIY” (RUH TIBBIYOTI) ASARIDA G‘AZABNI VA INSONNING O‘Z KAMCHILLIKLARINI BARTARAF QILISH HAQIDA MULOHAZALAR	214-219
Сохибова Лола Жонибоевна ШАХС МАДАНИЙ САВИЯСИ – МАДАНИЙ РИВОЖЛАНГАНЛИК ИФОДАСИ	220-224

Адашова Махсума Махмудбоевна
ИМОМ АБУ МАНСУР МОТУРИДИЙ ВА МОТУРИДИЙЛИК ТАЪЛИМОТИ – ДУНЁ
ОЛИМЛАРИ НИГОҲИДА.....225-231

Mukhammediyarova Akhmaral
PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF NOOSPHERIC DEVELOPMENT IN THE
ECOLOGICAL AND GLOBAL SECURITY SYSTEM.....232-239

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Tilovov Ozod, Isoqulova Gulxon
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA SONLARNING QO‘LLANILISHI VA ULARNING RAMZIY
MA‘NOLARI.....240-245

Surmilova Elena
GENDER STUDIES IN LINGUISTICS AND THEIR APPLICATION IN ENGLISH LANGUAGE
TEACHING246-252

Олимова Дилафрузхон Бахтиёржон қизи
ТИЛШУНОСЛИҚДА БАҲО КАТЕГОРИЯСИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШИ253-257

Djurayev Dilshod Mamadiyarovich, Radjabova Madinabonu Raimovna
XITOIY TILI GRAMMATIKASIDAGI “NATIJA TO‘LIQLOVCHISI (结果补语)”258-262

Azzamov Yusufjon Radjaboy o‘g‘li, Jo‘rayeva Xayriniso Shavkat qizi
EKOJURNALISTIKANING QO‘LLANILISH KATEGORIYALARI263-268

Fillipova Olga Igorevna
CONVERGENCE OF STYLISTIC DEVICES AS A CATEGORY OF REDUNDANCY.....269-278

Ismoilova Dilorom Rustamjon kizi
LEXICAL UNITS OF THE SEMANTIC FIELD “MURDER”279-285

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Ильясов Баходир Ильясович
ELEKTRON DAVLAT XIZMATLARINI KO‘RSATISHNING TASHKILY-HUQUQIY MEKANIZMI VA
UNING RIVOJLANISH YO‘LLARI286-293

Чориева Хуршидабону Хуррам қизи
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛАР ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИНИНГ
ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ИШТИРОКИ294-299

Хаётов Анвар Хусанович
ХАЛҚАРО ОЛИМПИА ҚЎМИТАСИНИНГ МУХТОР МАҚОМИ ВА ТУРЛИ ҲУҚУҚ
СУБЪЕКТЛАРИ БИЛАН МУНОСАБАТЛАРИ300-307

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Журабекова Хабиба Мадаминовна
РЕЧЕВАЯ АКТИВНОСТЬ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР КОММУНИКАТИВНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ308-315

Tursunova Aziza Xoshimovna WEB TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BILIMNI NAZORAT QILUVCHI DIDAKTIK VOSITALAR YARATISH USULLARI	316-321
Oblanazarov Faxriddin Asadovich FUTBOLCHILARNI TAYYORLASHDA TA'LIM VA MASHG'ULOTNING ASOSIY QONUN- QOIDALARINI AMALGA OSHIRISH	322-329
Isroilova Dildora Muxtarovna, Solijonova Dildora Ulugbekovna IJTIMOIY-SIYOSIY MATNLAR TARJIMASINI O'QITISHDA LINGVOMADANIY OMILLARNING O'RNI	330-335
Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li MAKTAB O'QUVCHILARI HUQUQIY TA'LIM – TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH BORASIDA OLIB BORILGAN TAJRIBA SINOV ISHLARI NATIJALARINING PEDAGOGIK TAHLILI	336-342
Jurayev Bobomurod Tojiyevich SHARQDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING MAYDONGA KELISHI VA RIVOJLANISHI	343-350

10.00.00-Филология фанлари

Azzamov Yusufjon Radjaboy o'g'li
Samarqand davlat chet tillar instituti
Sharq tillari fakluteti dekan o'rinbosari
Email: yu.azzamov@gmail.com

Jo'rayeva Xayriniso Shavkat qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti
Sharq tillari fakulteti
Xalqaro jurnalistika yo'nalishi talabasi
Email: xayriniso.jorayeva@icloud.com

EKOJURNALISTIKANING QO'LLANILISH KATEGORIYALARI

Annotatsiya. Maqolada ekójurnalistlarning vazifalari, ularning ekologik videolarini ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinishi, ekójurnalistning masulyatsizligidan keladigan zararlar, turli ekomakonlarning video tasvirlarini va ekohodisalarni tomoshabinga qay holda yetkazilishi va ekójurnalistlarning kasbiy qobiliyatidan turli ish joylariga joylashishi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: ekologiya, ekójurnalistika, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, jurnalistika, turizm, ekofalokat, ekomuhit, ekoturizm, media, OAV.

Аззамов Юсуфжон Раджабой угли
Заместитель декана факультета восточных языков
Самаркандский государственный
институт иностранных языков

Джураева Хайринисо Шавкат кизи
Студентка отделения Международная журналистика
Факультет восточных языков
Самаркандский государственный
институт иностранных языков

КАТЕГОРИИ ПРИМЕНЕНИЯ ЭКОЖУРНАЛИСТИКИ

Аннотация. В этой статье обязанности экокóжурналистов сегодня, публикация их качественных экологических видеороликов в различных средствах массовой информации, а также в социальных сетях, ущерб, причиненный безответственностью экокóжурналиста, как донести видеоизображения различных экóпространств до аудитория до проведения экокóмероприятий, аудитория будет проинформирована о том, как вести и как экокóжурналисты могут быть трудоустроены на различные должности после окончания этой области, в зависимости от их профессиональных навыков.

Ключевые слова: экология, экокóжурналистика, СМИ, социальные сети, журналистика, туризм, экокóкатастрофа, экóсреда, экóтуризм, медиа, OAV

Azzamov Yusufjon Radjaboy o'g'li
Deputy Dean of Oriental Languages faculty of
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Jurayeva Khayriniso Shavkat kizi
Student of the department of International
Journalism of Oriental Languages faculty of
Samarkand State Institute of Foreign Languages

CATEGORIES OF APPLICATION OF ECO-JOURNALISM

Annotation. In this article, the responsibilities of eco-journalists today, the publication of their quality environmental videos in various media, as well as social networks, the damage caused by the irresponsibility of an eco-journalist, how to convey video images of various eco-spaces to the audience before the eco-events, the audience will be informed about how and how environmental journalists can **be employed in various positions after graduation from this field, depending on their professional skills.**

Keywords: ecology, ecojournalism, mass media, social networks, journalism, tourism, ecocatastrophe, ecoenvironment, ecotourism, media, OAV

DOI: <https://doi.org/10.47390/B1342V3SI2Y2023N35>

Kirish

Hozirgi kunda dunyo aholisining yashayotgan hududlardagi ekologik muommolari ancha oshib bormoqda. Buning natijasi deb, hududlarda sodir bo'layotgan yomon ekohodisalarni ayta olamiz. Misol uchun, dunyo aholisi 8 milliardga yetgan bo'lsa, insonlarning son jihatidan oshib borishi, har tomonlama kundalik hayotdagi ehtiyojlarning oshib borishi natijasida havoga chiqarilayotgan zaharli gazlar, o'rmonlarning kundan kunga yo'q qilinishi va chiqindilarning ma'lum hududlarda ko'payishi yoki turli xil chiqindilarning suv sathiga tashlanishi tufayli ekomuhitning zararlanishiga sababchi bo'ladi. Albatta, buning asosiy qatnashchisi insonlardir. Bunday hodisalardan doimo ogohlantirish maqsadida turli hududlarda ekojurnalistlar o'z faoliyatini olib borishmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

XX asrning oxirigigi yarmida to'g'ridan to'g'ri xabar berish bilan bir qatorda badiiy yozish o'rtasidagi chegara xiralashdi. Bugungi kunda jurnalistlar va nashrlar yozishga turlicha yondashuvlarni sinab ko'rmoqda. Tom Wolfe, Gey Talese, Hunter S. Tompson bu misollardan ba'zilar. Shahar va muqobil haftalik gazetalar farqni xiralashtirishda yanada uzoqroqqa boradi. Ko'plab jurnallar to'g'ridan to'g'ri yangiliklardan ko'ra ko'proq xususiyatlarni o'z ichiga oladi. [1]

Jurnalistika tizimidagi axborot vositalari ommaning kundalik dolzarb ijtimoiy va maxsus axborotga bo'lgan ehtiyojini oshirishda asosan publitsistikaga tayanadi, shuningdek, muhim ijtimoiy masalalarni talqin qiluvchi ilmiy, badiiy va boshqa asarlardan ham foydalanadi. Jurnalistika tizimidagi axborot vositalari o'z faoliyatida ma'lum davriylikka va tezkorlikka amal qiladi. [2]

Takidlab o'tish joizki, bunday ekofalokatlarning butun dunyo bo'ylab oshib borishi jonzotlar, balki insonlarga ham zarar yetkazib kelmoqda. Bunday zararlarning oldini olish uchun ekojurnalistlar o'z yo'nalishi davomida barcha sodir bo'layotgan ekologik voqealarni xalqqa yetkazmog'i kerak. Ular bu hodisalarni aytishmagan taqdirda, shoshilinch bo'ladigan falokatlar: bo'ron, sunami, zilzila, vulqon otilishi kabi katta xavflarning qurboniga tirik jon

aylanishi mumkin. Misol uchun, yaqinda sodir bo'lgan Turkiya davlatidagi 8,5 balldan yuqori bo'lgan zilzila oqibatida juda ko'plab insonlar vafot etishdi.

Hududlardagi binolarning buzilishi shaharning juda yomon ko'rinishiga olib keldi. Binolarning qulashidan so'ng, uning ostida qolgan insonlarning ko'p qismi tirik holda, ba'zilari yarador, ko'plarning jasadi topilgan bo'lsa ham, ba'zi shaxslarning kimligini ham anglamay qoladigan ahvolga kelib qolgan edilar. Qiziqarlisi shundan iboratki, bu halokatning sababchisi ekojurnalistlar va zilzila sodir bo'lgan paytda uning bo'lishini aytmagan olimlar aybdordir. Bundan ko'rinib turadiki, bo'ladigan xavfdan xabardor qiluvchilar jurnalistlardir. Eng muhimi, bunday falokatlardan keyin davlatning turli sohalariga yetadigan ziyon kattadir. Ekojurnalistika sohasida yutuq va kamchiliklarni aytadigan bo'lsak, bu yo'nalishning o'z oldiga belgilab qo'ygan vazifalari ham bor.

1. Ekomuhitda turizmning rivojlanishi uchun ekoturistik manzillarni OAV orqali e'lon qilish davlatning daromadiga katta hissa qo'shishi mumkin.

2. Yana shuningdek, gidronomik markazlarda ishlash orqali insonlarga oldindan sodir etiladigan ekologik hodisalarni to'g'ri yetkazib bera olish ularning katta yutug'idir.

3. Ekomuhitning zararlanishini jurnalistlar tayyorlagan videolar orqali ijtimoiy tarmoqlar yoki ommaviy axborot vositalarida ko'rsatilishi insonlarning tabiatni bunday holga keltirmaslikka undashi aniq.

Muhokama va natijalar

Joizki, bugungi kunda ekojurnalistlarning ko'p qismi turizm sohasida ham yetarlicha tajribaga egadirlar. Aytish mumkinki, taniqli ekoturistik shaharlarga tashrif buyuradigan sayyohlarning ko'p qismini jurnalistlar deb ayta olamiz va ular tashrif buyuradigan shaharlarda olingan video tasvirlari ko'p kishilarni bu davlatga kelishiga undashadi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi borki, o'zini jurnalistman, deb hisoblaydi. Lekin axborot makonida turli xildagi feyk va ishonarli ma'lumotlarni saralab, ishonchli ma'lumot yetkazib beradigan insonni jurnalist, deb bilaman.[3]

Hozirda mahoratli ekojurnalistlar tomonidan olingan video tasvirlar ijtimoiy tarmoqlar yoki telekanallar orqali namoyish etilganda o'zlari his qilgan lahzalarni tomoshabinga to'laligicha video tasvirlari orqali yetkaza oladilar.

Internet nashrlar, chunonchi, ijtimoiy tarmoqlar milliy axborot maydoni minbariga aylangani va shu bilan bog'liq ravishda turfa muammolar vujudga kelayotganiga tabiiy jarayon sifatida qaralmog'i darkor. Avvalo, bu holat keng aholi qatlami uchun mutlaqo yangi voqelik.[4]

Ekojurnalistika sohasini hozirgi kunda o'rganadigan bo'lsak, bu soha o'zida ekomuhitning barcha sir sinoatlarini mujassam etgan. Faraz qilaylik, anchadan beri kitobda o'qib yuradigan mashhur manzillarni rasmlari orqali ko'rishdan ko'ra video tasvir orqali o'sha lahzalarda yashagan anchagina qiziqarliroqdir. Sizning biror uzoq ekoturistik makon, masalan, AQShdagi Yellowstone manzilgohiga borish hissi paydo bo'ldi va uning videolarini sifatli holda ekojurnalistlarning tarmoqlarida tomosha qilish ham bu makonning qanday ekanligini anglashga yordam berishi mumkin. Bu hududdagi sariq buloqlaru, sariq vulqonlarini, hayvonot olamining naqadar jozibali ekanligini ko'rar ekansiz, beixtiyor bu hududga sayohat qilgandek bo'lasiz.

Bunday turli manzaralarni ko'rish orqali o'sha joylarga tashrif buyurishga sizda umid uyg'onadi va bu umid oxir oqibat haqiqatga aylanishi mumkindir. Bunday hududlarning sifatli videolarini o'zbek telekanallarining juda ko'pida uchratishingiz mumkin. Jumladan, "Dunyo

bo'ylab" telekanali o'zida faqat ekojurnalistlardan tashkil topgan bo'lsa, "Yoshlar" telekanalida efirga uzatilayotgan "Sayohat" nomli ko'rsatuvda jurnalistlarning turli ekoturistik makonlarga, rivojlangan shaharlardagi tarixiy maskanlarga bo'lgan ko'rsatuvlarini ko'rish mumkin. Qizig'i shundan iboratki, bugungi kunda "Dunyo bo'ylab" kanali faqatgina o'zbek tilida emas, balki o'zbek, rus va ingliz kabi uch tilda ham tomoshabinlarga sifatli ekoaxborot tarqatadi.

Shuningdek, "Yoshlar", "Renessans" kabi telekanalarda berib borilayotgan qisqa ibratli videolar insonlarning tabiatga yaxshi munosabatda bo'lishiga chorlaydi. Bunday ekomuhitga oid videoroliklarning faqat oz kanallarda, ijtimoiy tarmoqlarda ko'rsatib borilishi orqali barcha aholiga tabiatning zararlanmasligiga yordam berishga undaydi. Bugungi kunda ekojurnalistika sohasida ijod qiladigan kishilarni kamdan kam uchratamiz va bu yo'nalish bo'yicha turli xil adabiyotlar ro'yxatini ham topishning iloji yo'q. Faqatgina, UzJOKU universitetida yosh jurnalistlarga dars beradigan ustoz Nargiza Qosimova bugungacha bu yo'nalishning biz bilmagan axborotlarini yig'ib kitob holida chop etmoqdalar.

Ish faoliyatini "Jizzax haqiqati" gazetasida boshlab, keyinchalik Jizzax viloyati teleradiokompaniyasi, "Sangzor" radiosi va yana bir qancha OAVlarda jurnalist, O'zbekiston Milliy Universitetida katta o'qituvchi sifatida faoliyat yuritdi.[5]

Bu yo'nalish bo'yicha bilimga chanqoq talabalarga o'rgatish orqali kelajakda ekojurnalistlarning soni yurtimiz bo'ylab sezilarli darajada oshishiga ishonchim komil. Uning adabiy asarlarida berib borilayotgan ekojurnalistika sohasi haqidagi ma'lumotlar bu sohani turli sohalarga chambarchas bog'liq deb ayta olamiz. Jumladan, ekojurnalistika yo'nalishi turizm sohasiga bog'langan holda ekoturizm sohasi deb ham ayta olamiz. Misol uchun, butun dunyodagi juda ko'plab ekoturistik markazlarning keng tanilishida, ularning daromadi va kuzatuvchilarining oshishiga bevosita ekojurnalistlarning aloqasi kattadir. Chunki, tomoshabinlarga chiqarib berilayotgan kontent orqali bu joyga qiziqqan kishilarning kelishiga bo'lgan xohishi uyg'onishi mumkin.

Kelgusida bunday milliy bog'lar orqali sohasining rivojlanishida kichik-kichik davlatlardagi juda ko'plab manzillarda joylashgan tarixiy joylar ham tez fursatda sayyohlar makoniga aylanadi. Xususan, O'zbekistondagi Lashkarak qishlog'ida ekoturizmning rivojlanishi oqibatida bu joy hozirda "O'zbekiston Shveysariyasi" nomi bilan mashhur bo'ldi va bunday joyga turli davlatlardan, jumladan, Angliya, Rossiya va shunga o'xshash davlatlardan sayyohlar soni ortmoqda. Sayyohlar bu yerning toza havosidan, atrof-muhitning go'zalligidan haligacha hayron qolishmoqda va sayohatga keluvchilar soni ko'paymoqda. Kelgusi 10 yil davomida ekoturistik zonalarning oshib borishi davlat rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

Ayni paytda O'zbekistonda 800ga yaqin turizm bilan shug'ullanuvchi turoperatorlik firmalari, 600ga yaqin mehmonxonalar, 30dan ortiq muhofazaga olingan hudud (qo'riqxonalar, milliy bog', nodir tabiat yodgorliklari va h.k.)lar, 60 ta o'rmon xo'jaliklari, faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda 400 dan ortiq tabiatning noyob yodgorliklari mavjud.[6]

Ekoturizm uchta asosiy mezonni o'z ichiga oladi: asosiy sayyohlarni jalb qiluvchi joylar tabiiy manzillar (masalan, flora, fauna, geologik xususiyatlar) bo'lib, sayyohlar va boshqa ishtirokchilarning faoliyati tashrif buyuradigan mintaqada jismoniy va madaniy muhitga yumshoq ta'sir ko'rsatadi.[7]

Shuni aytish mumkinki, ekoturizmida sayyohlardan olinadigan daromad katta mablag'ni tashkil etadi. Bugungi kunda har bir davlatning sayohat qilish uchun juda ko'plab tarixiy maskanlari bor va ushbu davlatlarga sayohat qilish uchun sayohatchilar juda ko'p pul

sarflashadi. Sayohat manzillariga to'lanadigan mablag'lardan ham davlat hisobiga, ham mahalliy aholiga daromad keltiradi. Chunki, har bir mashhur manzilgohni ziyorat qilish uchun keladigan sayyohlardan tushadigan foyda mamlakatning rivojlanishiga yordam beradi. Har bir shahardagi mashhur manzilgohlarning yonida joylashgan ovqatlanish joylari va turar joylarga to'lanadigan pul insonlarning yaxshi daromad olishiga sabab bo'ladi. Shu tarzda ekoturizmning rivojlanishi har tomonlama foyda keltirishi mumkin. Shunday eng mashhur Parij, Turkiya kabi davlatlarda turizmning rivojlangani sababli har sohada davlatga foyda keltiradi.

Vaholangki, bunday joylarning sifatli video kontentlarini ko'rgan kishilar bu maskanga o'zlari kelgandek bo'lishadi va kelishni xohlagan kishilar soni ko'payishi mumkin. Ba'zi insonlar bu yo'nalish haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasliklari uchun, jurnalistikaning ekójurnalistika yo'nalishida o'qiganlaridan so'ng ish topishga qiynalishlari mumkinligini ko'p o'ylashadi. Ammo, bu mavhum o'ydir. Bugungi kunda, o'z sohasini yaxshi tamomlagan sifatli kadrlarga yurtimiz hamon ehtiyot his qilmoqdalar.

Bu yo'nalishni bitirgan ekójurnalist ekoturist bo'lishi oqibatida juda ko'plab juda ko'plab shaharlarga sayohat qilishi, gidronomik binolarda ishlashi, telekanallarda ob-havo boshlovchisi yoki ekójurnalist sifatida ko'rsatuvlarda ishlashlari mumkin. Bu yo'nalishni bitirgan sifatli kadrlarning soni kamligi tufayli ishchi hodimlarning soni yetmayotganligini ko'rishimiz mumkin. Albatta guvohi bo'lamizki, faqatgina ekójurnalistika yo'nalishi bo'yicha emas, balki butun jurnalistika sohasida radio, telekanallarda ishchi kuchining yetmaganligi tufayli o'z yo'nalishini bitirgan yoshlar kam va ko'p jurnalistlar o'zbek tiliga ixtisoslashgan yo'nalishlarni tamomlashgan. Bunday hodimlar kuchi yetmasligi oqibatida o'z yo'nalishining ustalari yo'q telekanal, radio va ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan kontentning pasayishiga guvohi bo'lamiz. Shuning uchun, jurnalistika sohasi bugungi kunga kerak sohalardan biri hisoblanadi va har bir sohaning ham jamiyat hayotida tutgan o'rni beqiyosdir.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ekójurnalistika yo'nalishi o'zida barcha ekomuhit hodisalarini tomoshabinga yetkazib bermasdan, balki ularga dunyodagi eng mashhur ekoturistik manzillarni ham sifatli holda taqdim eta oladilar. Ekójurnalistlarning ish tajribasidan kelib chiqqan holda ularga ish o'rinlari juda ko'p va bu yo'nalishda kadrlar tezda oshishi mumkin. Chunki, bu yo'nalish bo'yicha darslar UzJOKUning jurnalistika sohasida ham o'rgatishmoqda va yosh kadrlarga darslarni ekójurnalist Nargiza Qosimova olib bormoqdalar.

Bugungi kunga kelib bu sohani tushunadigan va shu soha bo'yicha ishlay oladigan talabalarning yetuk kadr bo'lib chiqishi, jurnalistikada chiqarilayotgan axboriy kontentlarning oshishida yordam beradi. Shunday ekan, hozirda ekójurnalistikaning o'z sohasida qo'llanilishi bo'yicha yetarlicha fikr va xulosaga ega bo'ldik.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Jurnalistika janrlari https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jurnalistika_janrlari
2. Jurnalistika <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jurnalistika>
3. Jurnalistika qanday bo'lishi kerak? - OAV vakillari bilan soha muammolari va istiqbol haqida suhbat <https://kun.uz/uz/news/2021/06/27/jurnalistika-qanday-bolishi-kerak-oav-vakillari-bilan-soha-muammolari-va-istiqbol-haqida-suhbat>

4. Jurnalistika – ijod maydoni, jurnalist – ijodkor shaxs Нодир Маҳмудов
<https://yuz.uz/uz/news/jurnalistika--ijod-maydoni-jurnalist--ijodkor-shaxs>
5. Nargis Qosimova (1969) <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nargis-qosimova-1969>
6. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari qanday?
<https://kun.uz/uz/news/2017/03/08/uzbekistonda-ekoturizmni-rivozlantiris-imkoniatlari-kandaj>
7. Turizmning dunyo mamlakatlari YaIMidagi ulushi: O‘zbekiston eng past ko‘rsatkichlilar orasida
<https://kun.uz/uz/news/2018/04/13/turizmning-dune-mamlakatlari-aimidagi-ulusi-uzbekiston-eng-past-kursatkicilar-orasida>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ S/2 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

Специальный выпуск

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES Special Issue

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).